

TRANSPORTDA KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Raximberdiyev Ismoil Ubaydullayevich

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

ismoil0153@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada transport sohasida kichik tadbirkorlikni shakllantirish tamoyillari va ularning tahlili keltirilgan. Transportda kichik tadbirkorlikni ifodalashga sifat jihatidan yondoshish kichik transport korxonasini katta firmaning kichraytirilgan ma'lum bir ko'rinishida emas, balki yangiliklarni kiritishga yuqori tayyorligi hamda tashqi muhit shart – sharoitlariga tezkor moslasha olishi bilan bog'liq bo'lgan qator xususiyatlariga ko'ra yirik firmalardan ajralib turuvchi korxonada sifatida qarashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, transport tizimi, bozor iqtisodiyoti,

ABSTRACT

The article presents the principles of small business formation in the transport sector and their analysis. Qualitative approach to the expression of small business in transport is different from large firms in terms of a number of features associated with a small transport enterprise not in a reduced form of a large firm, but a high willingness to innovate and adapt quickly to external conditions. allows you to look at it as a distinct enterprise.

Keywords: business, transport system, market economy,

АННОТАЦИЯ

В статье представлены принципы формирования малого бизнеса в транспортной сфере и их анализ. Качественный подход к выражению малого бизнеса на транспорте отличается от крупных фирм с точки зрения ряда характеристик, связанных с небольшим транспортным предприятием, не в форме небольшой фирмы, а высокой готовностью к инновациям и быстрой адаптации к внешним условиям. .. позволяет вам рассматривать его как отдельное предприятие.

Ключевые слова: бизнес, транспортная система, рыночная экономика,

KIRISH

Mamlakatimiz transporti sohasida kichik tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim

shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortiq ulushi kichik tadbirkorlik hisobiga to‘g‘ri kelsa, O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 2016 yil yakunlariga ko‘ra 56,9 foizni tashkil etgan [1].

Tadbirkorlikning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi bo‘lib “Tadbirkorlik va tadbirkorlarning o‘zini-o‘zi tashkillashtiruvchi harakatlar erkinligi” to‘g‘risidagi g‘oya hisoblanadi. Uni ro‘yobga chiqarish prinsip va mexanizmlari tizimli-sinergetik nazariyada qisman yoritilgan bo‘lib, ilmiy bilimlarning boshqa sohalaridagi o‘zini-o‘zi tashkillashtiruvchi hodisalarni prognozlashning asosi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik sektori qator muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi:

mulkdorlar sonini oshiradi, demokratik jamiyatda siyosiy barqarorlikning bosh kafolati-o‘rta sinfnig shakllanishiga imkoniyat yaratadi;

iqtisodiy faol aholining ulushini oshiradi va turli ijtimoiy guruhlarning turmush tarzidagi nomutanosiblikni silliqlaydi;

juda harakatchan va ishbilarmon shaxslarni tanlashni amalga oshiradi, bunda kichik biznes ular uchun o‘z salohiyatidan foydalanishning boshlang‘ich maktabi bo‘lib xizmat qiladi;

yangi ish joylarini yaratadi, ishlovchilarni, shu jumladan, aholining ijtimoiy nozik guruh vakillari (yoshlar, ayollar, nafaqaxo‘rlar, nogironlar va boshqalar)ni ishga joylashtirishni ta‘minlaydi.

Kichik avtotransport korxonalar (ATK) lari transport xizmatlari bozorining ma‘lum bir sektorida xizmat ko‘rsatadi: tashuvchilarning 57 foizidan ortig‘i asosan kichik miqdordagi yuklar va bir marotabali tashishlarni amalga oshirishadi. Transport xizmatlariga bo‘lgan talabni kichik ATKlari yirik korxonalariga nisbatan xizmatlar tannarxini minimallashtirishgan holda past tariflar hisobiga qo‘llab-quvvatlashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan kichik transport biznesining asosiy yutug‘i bo‘lib quyidagilar hisoblanadi[2]:

- talabga tez va moslashuvchan holda javob berish. Bu esa bozorni to‘ldirish hamda transport xizmatlarining sifatini oshirish va xilma-xilligini ta‘minlashga imkon beradi;

- tashishlarning yangi texnologiyalarini rivojlantirish hamda transport xizmatini ko‘rsatish va logistika sohasida yangiliklarni samarali rag‘batlantirish;

- barqaror soliqqa tortish bazasini yaratish;

•qonunchilik va ijro hokimiyati organlari bilan munosabatlardagi har qanday o'zgarishlarga hozirjavoblik.

Avtomobil transportida kichik tadbirkorlikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi o'ziga xos - xususiyatlarga ega bo'lib, ular transport xizmatlari bozorida faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etishda zarur bo'lgan tarmoq xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Transportda kichik tadbirkorlikni ifodalashga sifat jihatidan yondoshish kichik transport korxonasi katta firmaning kichraytirilgan ma'lum bir ko'rinishida emas, balki yangiliklarni kiritishga yuqori tayyorligi hamda tashqi muhit shart – sharoitlariga tezkor moslasha olishi bilan bog'liq bo'lgan qator xususiyatlariga ko'ra yirik firmalardan ajralib turuvchi korxonasi sifatida qarashga imkon beradi.

Miqdoriy mezonlardan, odatda, kichik tadbirkorlik sektorining chegaralarini rasmiy aniq belgilash, xususan quyidagilar uchun foydalaniladi: qonunchilik, sektorni statistik jihatdan kuzatilishini tashkil etish; rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Kichik tadbirkorlik sektorini alohida ajratuvchi aksariyat mamlakatlarda ustunlik jihatidan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: ishlovchilarning soni; yillik aylanma; valyuta balansi; kapital tuzilmasi.

Bunda bir yoki bir nechta ko'rsatkichdan foydalanish mumkin. Band bo'lganlar sonining chegaralanishi eng ommalashgan umumqabul qilingan miqdoriy ko'rsatkich bo'lib, u barcha mamlakatlar qonunchiligida o'z aksini topgan.

Shunga qaramasdan band bo'ladiganlarning soni bo'yicha mezondan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

•bandlik tushunchasining o'zini ifodalashga yondoshuvlarda mamlakatlararo farqlar mavjud. Ba'zi holatlarda bir yilda band bo'lganlarning o'rtacha soni ko'rsatkichidan foydalanilsa, ikkinchisida – ro'yxatdagi o'rtacha soni yoki ba'zi-bir toifadagi yollanma ishlovchilarni hisobga olmagan holda ro'yxatdagi o'rtacha soni kabi ko'rsatkichga e'tibor berishadi;

•ushbu mezonni qo'llash ko'lamlari ham farq qiladi. Masalan, butun sektor bo'yicha mezon yagona bo'lishi yoki faoliyat turlari bo'yicha differensiyalangan bo'lishi mumkin;

•ushbu mezon alohida ajratish maqsadlarida farqlarning mavjudligi: statistik hisobga olish va monitoring uchun; qo'llab-quvvatlash va rivojlanish maqsadlari uchun.

•Ko'p hollarda bandlikning sifat ko'rsatkichi sifatida ishlovchilarning ro'yxatdagi o'rtacha sonidan foydalaniladi.

Yillik aylanma (sotuv hajmi)ga chegara qo'yishdan korxonalarining turlarini aniqlashda qo'shimcha chegaralanish sifatida band bo'ladiganlar soni bo'yicha mezon bilan birgalikda foydalaniladi. Sektorni alohida ajratish mezoni sifatida sotuv hajmi (aylanmasi)ga chegaralanishlarni qo'llashning asosiy sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ko'rsatkichni talqin qilishda so'zsizlik (shubhasizlik);

- maxsus hisobga olishni tashkil etish zaruriyatining yo'qligi. Yillik aylanma moliyani hisobga olishning shaklidan qat'iy nazar har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan kuzatilib boriladi;

- xo'jalik yuritishning talab qilinadigan guruhlarini ajratishda oddiylik.

Valyuta balansi (aktivlarning balans qiymati va b.) qo'shimcha aniqlik kirituvchi mezon sifatidan qo'llaniladi. Mezon ko'rsatkich sifatida mulkiy huquqlariga nisbatan biznesning o'lchamlarini aniqlash uchun muhimdir.

Barcha tadbirkorlar va, ayniqsa, mikrobiznes ham o'z hisobotlarini balans ko'rinishida olib bormasliklari sababli aktivlar o'lchamlari bo'yicha mezon chegaralangan holda qo'llaniladi.

Biznesning mustaqilligini aniqlash mezoni (kapital tuzilmasiga chegaralanishlar) – keng tarqalgan chegaralovchi mezon bo'lib, kichik tadbirkorlik yoki biznes sektorining mustaqil, qaram bo'lmagan sub'ektlarini ajratishga imkon beradi. Ular, birinchi navbatda, boshqa yirik "o'yinchilar" tomonidan o'z manfaatlari uchun foydalanishga emas, balki davlat tomonidan beriladigan e'tiborga muhtojdir.

Ushbu chegaralanishlarni qo'llash kichik tadbirkorlik yoki biznes sektoridan mustaqil bo'lmagan va qaram korxonalarini chiqarishga imkon beradi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aksariyat mamlakatlar band bo'ladiganlarning soni bo'yicha ko'rsatkichdan asosiy mezon sifatida foydalanishadi. Bu shu bilan bog'liqki, ushbu ko'rsatkich biznes ko'lamini aniqlagan va xo'jalik faoliyati natijalarining indikatorlarini taqqoslagan holda har qanday xo'jalik sub'ektlari tomonidan kuzatilib boriladi. Shu bilan bir qatorda qiymat ko'rsatkichlaridan farqli ravishda ushbu ko'rsatkich hisob-kitoblarda o'zining aniq metodologik bazasiga egadir.

Transport xizmatlari bozori rivojlanishining hozirgi zamon muammolari, tadqiqotchilarning fikricha, doimo rivojlanib boruvchi tizimli-sinergetik konsepsiyadan foydalanish asosida hal qilinishi mumkin.

Shunday qilib, hozirgi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni umuman, shu jumladan, transportda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning ahamiyati yana ham ortib bormoqda.

REFERENCES

1. Arislanovna, Y. S., Bakhtiyorvich, G. B. (2021). Marketing And Information Support In Public Sector. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(1), 940-947.
2. Arislanovna, Y. S., Nematjanovna, K. M. (2021). Specifics Of Corporate Governance In Road Transport. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 8027-8030.
3. Arislanovna, Y. S., Bakhtiyorvich, G. B. (2021). Using The Experience Of Developed Countries In Developing A Consortium Between Higher Education Institutions And Production. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(1), 819-825.
4. Yuldaheva, S. A., Malenkikh, D. A. (2018). Unctad methodology in globalization of the direct investment market. *Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики*, 1, 149-154.
5. Mukhitdinova, K., Yuldasheva, S. (2020). Development of transport and logistics services market. *EPRA International Journal of Research and Development*, 5(5), 464-466.
6. Yuldasheva, S. A., Murodov, B. X. ugli, Suvonqulov, S. I. ugli (2020). Negative consequences of monopoly and methods of regulation. 195-196.
7. Кененбаев, Е. Т. (2020). Невербальная коммуникация в социальной жизни общества. *Горизонты современной лингвистики*, 107-112.
8. Кененбаев, Е. Т. (2020). Изменение взаимодействия невербальных и вербальных средств коммуникации в социальной сети интернета. *Scientefic-methodological electronic journal*, 2 (31), 80-90
9. Кененбаев, Е. Т. (2021). Коммуникация и правомерность использования некоторых терминов, связанных с этим понятием. *Вестник Челябинского государственного университета*, №1 (447), 73-82.
10. Saodat, Z. (2020). Teaching Foreign Languages with Interactive Methods. *International Engineering Journal for Research and Development*, 5(1), 222-226.
11. Krivosheyeva, G., Zuparova, S., & Shodiyeva, N. (2020). Interactive way to further improve teaching listening skills. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 520- 525.

12. Zuparova, S., Shegay, A., & Orazova, F. (2020). Approaches to Learning English as the Source of All. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5).
13. Zuparova, S. S. (2021). Modern methods and problems of teaching English. *Экономика и социум*, 11.
14. Зупарова, С. Ш., Каюмова, Г. А. (2021). Из истории методов обучения иностранным языкам. *Экономика и социум*, 7, 272-284.
15. Zuparova, S. S. (2021). Using Didactic Games in Teaching Foreign Languages. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 909-913.
16. Zuparova, S, Shegay, A. (2021). Methods of Teaching Foreign Languages. *Eastern European Scientific Journal*, 1(7), 141-143.
17. Djurayeva, Y. (2020). The Role of Phonetics in Languages Teaching. *International Engineering Journal for Research and Development*, 5(1), 44-49.
18. Djurayeva, Y., Orazova, F. & Kayumova, G. (2020). Applying independent education in foreign language classes and its problems. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (10), Part II, 195-199.
19. Djurayeva, Y., Ayatov, R., & Shegay, A. (2020). Current Problems and Resolutions of Teaching English Grammar. *Academic research in educational sciences*, 1 (3).
20. Djurayeva, Y. A. (2021). Aesthetic Culture of a Translator. *Tilshunoslikdagi zamonaviy yoʻnalishlar: muammo va yechimlar*, 210-212.
21. Djurayeva, Y. A. (2021). Using innovative methods in learning English. *Экономика и социум*, 11.
22. Djuraeva, Yu. A., Ayatov, R. I. (2021). Development of independent creative activity in the teaching process. *Экономика и социум*, 6-1, 85-88.
23. Djurayeva, Y. A. (2021). Teaching mixed –ability student in classroom. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1071-1075.
24. Djurayeva, Y. A. (2021). Enhancing English pronunciation in learning process. *Academic research in educational sciences*, 2, 302-306.